

QORAQALPOG'ISTONDA SUV TANQISLIGINI OLDINI OLIHGA QARATILGAN CHORA TADBIRLAR TAHLILI

Jumamuratov Ergash Xamzayevich

Urganch davlat Universiteti Tabiiy fanlar fakulteti

Geografiya yo'nalishi 203-guruh talabasi

Annotatsiya: *Hozirgi kunda suv tanqisligi butun dunyoda global muammolardan biri hisoblanadi. Shuning uchun suv tanqis hududlarda mavjuda manbalardan oqilona foydalanish kerak bo'ladi. Ushbu maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasida suv tanqisligini oldini olishga qaratilgan chora tadbirlar va ularning tahlili haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *suv resurslari, gidroenergiya resurslari, orol dengizi, cho'llashish, qum bo'ronlari,*

KIRISH

Suv hayot manbayi ekanligini faqat issiq va o'ta issiq, quruq iqlim sharoitidagina to'la tasavvur qilish mumkin. Xalq iborasi bilan aytganda qayerda suv paydo bo'lsa o'sha yerda hayot boshlanadi, suv tugagan erda esa hayot ham tugaydi. Shuning uchun ham qadim zamonlardan boshlab o'lkamizda suvga hurmat, uni e'zozlash, isrofgarchiligiga va ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik ruhi hukum surgan. Shu bilan birga «suvday serob bo'1», «oldingdan oqqan suvni qadri yo'q» va shu kabi iboralar ma'lum sharoit va davrda o'z «xizmatini» o'tagan. Ayniqsa, asrimizning 50-yillarida «Tabiatni xalq izmiga bo'ysundirish» uchun boshlangan kurash o'ziga xos hayot maktabi bo'ldi va muhim xulosalarga olib keldi. Bular ichida eng muhimi suv boyliklari cheklangan ekanligi, ularga faqat ma'lum miqdordagi iflos suv tashlanmagandagina o'z sifatini saqlab qolishi mumkinligi, tabiat yo'l qo'yilgan xatolarni kechinnasligi va har bir xato uchun qasos olishini tushunishdan iborat bo'ladi. Maxsus tekshirishlar shuni ko'rsatdiki, soni doimo o'sib borayotgan planeta aholisini (agar uni soni 1800-yilda 0,9 mlrd. bo'lgan bo'lsa, 1920-yili 1,8 mlrd., 1970-yil 4.0 mlrd., 1990-yil 5,2 mlrd., 2000-yil 6,3 mlrd.. 2050-yil 1 1 mlrd.) oziq-ovqat bilan ta'minlash uchun 2050-yilga kelib 500 mln. gektar sug'oriladigan yerlarda yuqori hosildorlikka erishish uchun dehqonchilik qilish (hozirda bu maydon 285 mln.ga yaqin) kerak boladi. Ma'lumotlarga ko'ra, 2018 yilda Amudaryo daryosi havzasida suv bilan ta'minlanish darajasi o'tgan yilga nisbatan kam bo'lishi kutilmoqda. Xo'sh, Qoraqalpog'iston Respublikasida suv tanqisligining salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha qanday ishlar amalga oshirilmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligidan ma'lum qilishlaricha, 2018-yilda 52 ming gektar sholi maydoni suv tanqisligi sababli qisqartirilgan. Ayni paytda 19 ming 850 gektar maydonga sholi ekish rejalashtirilgan. Qolgan 32 ming 150 gektar yerga kam suv

talab qiladigan kungaboqar, mosh, kunjut kabi eksportbop ekinlar ekilayotir. Bugungi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasida ishlatiladigan suv miqdorining 97,1 foizi qishloq xo'jaligiga to'g'ri keladi. Bu juda katta miqdor. Suvning 1,2 foizi kommunal xo'jaligi, 0,3 foizi energetika, 0,1 foizi sanoat va 1,2 foizi baliqchilik sohaslariga ishlatiladi. Suv tanqisligining salbiy ta'sirini yumshatish va suv resurslaridan oqilona foydalanishni tashkil qilish yuzasidan hududda 102 gektar maydonda tomchilatib sug'oriladigan bog' barpo etilgan, shuningdek, achchiq qalampir ekilgan 120 gektar maydonda egatlarga plyonka to'shab sug'orish, 1180 gektar maydonda ko'chma egiluvchan quvurlar bilan sug'orish texnologiyalari joriy etilgan. Suvdan tejamli va samarali foydalanish maqsadida joriy yilda 390 dona ko'chma dizel nasos agregati sotib olinib, g'alla va achchiq qalampir ekinlari sug'orilmoqda. Tez kunlarda qo'shimcha yana 104 dona nasos agregati keltiriladi.

Hududda mavjud 295 ming gektar sug'oriladigan maydonlardan 87,8 ming gektarida paxta va 53 ming gektar yerda g'alla yetishtirilmoqda. 12,6 ming gektar yerga sabzavot, 6 ming gektarga poliz, 1,8 ming gektarga kartoshka, 10,3 ming gektarga moyli ekinlar, 11,8 ming gektarga ozuqa ekinlari va 51,4 ming gektar yerga boshqa ekinlar joylashtirilib, belgilangan agrotexnik tadbirlar asosida parvarishlanmoqda. Sug'oriladigan maydonlarni suv bilan ta'minlash uchun 22 ming 735 kilometrlik sug'orish tarmog'i, 5 ming 942 dona turli gidrotexnik qurilmalardan foydalaniladi. Shuningdek, davlat hisobidagi 273 ta nasos stansiyasida 612 dona agregat va fermer xo'jaliklari hisobida 685 dona nasos agregati mavjud. Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va unumdorligini saqlash uchun 20 ming 455 kilometr uzunlikdagi kollektor tarmoqlari, 8 dona meliorativ nasos stansiyalari, 3 ming 583 ta kuzatuv qudug'i, 909 dona gidrotexnik qurilma ishlab turibdi. Ular 378 ming 770 gektar maydonga xizmat ko'rsatayotir. Vegetatsiya davrida yetkazib berilgan suvdan samarali foydalanish maqsadida "Yo'l xaritasi" ishlab chiqilgan. Suv tanqisligini oldini olish uchun mavjud manbalardan foydalanib quyidagicha usullardan foydalanish orqali suv tanqisligini oldini olishimiz mumkin. Bu hududlarda ham xuddi dunyo miqyosidagi suv xo'jaligi muammolari mavjud bo'lib, undan tashqari Orol dengizi suvi sathining

pasayib borayotganligi mahalliy muammodan umuminsoniy muammolarga aylanib bormoqda. Bu muammolarning kelib chiqishini asosiy sabablari quyidagilardir:

— Orol dengizi havzasi va shu jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida chuchuk suv zaxiralarini o'ta chegaralangan miqdorda ekanligi;

— chegaralangan chuchuk suv resurslarini hududiy o'ta notekis taqsimlanganligi va tarqalganligi;

— Orol dengizi havzasida umuman va shu jumladan, Qoraqalpog'istonda sobiq sovet tuzumi davrida paxta yakkahokimligini vujudga kelishi;

— qishloq xo'jaligini ekstensiv ravishda rivojlantirilganligi, paxta yetishtirish hajmini yangi yerlarni o'zlashtirish hisobiga amalga oshirilganligi, har bir o'zlashtirilgan gektar yemning unumdorligini ko'tarishga yetarli ahamiyat berilmaganligi, Sirdaryo va Amudaryo suvlarini to'laligicha asosan, sug'orishga sarflanishi va natijada, Orol dengiziga XX asr 80-yillarning oxiridan boshlab bir tomchi suv quyilmaganidadir. Bu suv

ho'jaligi muammolarini zudlik bilan hal qilinishi Orol dengizi havzasida ekologik vaziyatni sog'omlashtirish, sanitar holatni yaxshilash va jamiyatimiz kelajagini ta'minlashda muhim ahamiyatga egadir.

— mavjud chegaralangan chuchuk suv resurslarining turli (kommunal- xo'jalik, sanoat, qishloq xo'jaligi, chorvachilik va sug'orma dehqonchilik, transport va h.k.) oqova suvlari bilan ifloslanayotganidadir.

Muammolarni hal qilishning quyidagi yo'llari mavjud:

1. Bor suv resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash, suvning befoyda sarflanishiga va ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik, agarda bu yo'l bilan suv xo'jaligi muammolarini uzil-kesil hal qilish mumkin bo'lmasa u holda.

2. Havzalararo mavjud suv resurslarini qayta taqsimlash yo'li bilan suv bilan kam ta'minlangan havzalarga (hududlarga) suv resursi katta miqdorda va ortiqcha bo'lgan suv resursini qo'shni havzaga uzatish yo'li bilan hal qilish.

3. Tabiatda juda kalta miqdorda tarqalgan (dengiz, koM va yer osti) sho'rroq va sho'r suvlarni sho'rsizlantirish yo'li bilan mavjud suv tanqisligini hal qilish.

4. Orol dengizi havzasida umuman va shu jumladan, Qoraqalpog'iston hududida paxta yakkahokiniligini tugatish.

5. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishni intensiv usulda amalga oshirish, ya'ni har bir o'zlashtirilgan gektar unumdorligini oshirish, suvni tejash texnologiyalarini va sug'orish texnikalarini keng joriy qilish.

6. Tabiatni muhofaza qilishni umuman va shu jumladan. suv resurslarini muhofaza qilishni hozirgi kun talabi darajasida tashkil qilish.

Xalq xo'jaligida suv iste'moli boshqa barcha jami resurs va mahsulotlardan oshib tushadi. Buni quyidagi misolda ko'rishimiz mumkin:

1 tonna neft qazib olish uchun—10 metr kub suv;

1 tonna po'lat uchun - 100 metr kub suv;

1 tonna qog'ozga - 250 metr kub suv;

1 tonna asetat ipagi uchun - 2600 metr kub suv;

1 kilogramm sabzavot yetishtirish uchun - 50 litr suv;

1 kilogramm non mahsulotini yetishtirish uchun - 500 litr suv kerak bo'ladi.

Hozirgi vaqtda suv resurslari kamchil bo'lgan yillarda sug'orish uchun sho'rlanish darajasi yuqori bo'lgan tik zovur quduqlari va kollektor-drenaj suvlarni ishlatish hisobiga suv tanqisligini birmuncha bartaraf etish mumkin. Bu suvlarning sifatini hisobga olmay, undan foydalanish qishloq xo'jaligi ekinlar hosildorligini pasaytiradi yoki hosilni butunlay yo'qotishga va qayta sho'rlanishga sabab bo'ladi. Ushbu salbiy oqibatlarining oldini olish uchun kollektor-drenaj va yer osti suvlaridan foydalanishdan oldin ularning sug'orishga yaroqligini aniqlash zarur.

Qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orish suvning yaroqliligi, dastavval uning sho'rlanish darajasi va kimyoviy tarkibi bo'yicha aniqlanadi. Buning uchun O'zbekiston Respublikasi Qishloq va Suv xo'jaligi Vazirligining viloyatlardagi meliorativ

ekspeditsiyalarining ma'lumotlaridan foydalanish kerak, ular kollektor-drenaj suvlarining shurlanish darajasini muntazam tekshirib boradilar. Bu ma'lumotlar bo'lmagan taqdirda kollektorlardan suv namunalarini olib kimyoviy tarkibini tahlil qilib turish kerak. Suv namunalarini olish tadbirlarini kollektorlarda suv oqimi keskin o'zgarganda (ko'p va kam bo'lganda) har o'n kunda bir marta olish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. SHO'RLANGAN KOLLEKTOR-DRENAJ SUVLARINI QISHLOQ XO'JALIGI EKINLARINI SUG'ORISHGA BAHOLASHNI SODDALASHTIRILGAN USLUBI. Xo'jaqulov Rustam, Islomov Sobirjon Ahmad o'g'li. Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

2. Kuzibayevna K. D. et al. Drying of the Aral Sea and changes in the landscape of the Aral Sea region //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2022. – T. 4. – C. 108-110.

3. Amanov A. K. et al. ECONOMIC AND GEOGRAPHICAL FEATURES OF THE FORMATION OF NAVOI FREE ECONOMIC ZONE //Thematics Journal of Geography. – 2021. – T. 6. – №. 1.

4. Sobirov J. X. O., Komiljanova E. U. Q., Sharifboyeva H. I. Q. XORAZM VILOYATIDA AGRAR SOHANING EKSPORT SALOHIYATINI KENGAYTIRISHDA AYRIM NOAN'ANAVIY TARMOQLARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI VA RIVOJI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. 1. – C. 38-42.

5. Islambayevna M. M. et al. PROSPECTS FOR SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF KOSHKOPIR DISTRICT //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 9. – №. 12. – C. 1375-1378.

6. Islambayevna M. M. et al. XORAZM VILOYATI TABIIY GEOGRAFIK O'RNINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (GEOGRAFIK O'RNINING QULAY VA NOQULAY TOMONLARI) HAQIDA //Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 50-53.